

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2024-1/3**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2024**

**МУНДАРИЖА**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<b>Alieva N.</b> Conceptual foundations for the study of phraseological units and collocations in english, russian and uzbek	5
<b>Aytmuratov A.M.</b> Raqamli texnologiyalar sohasidagi yangi terminlarning til ilmi sohasidagi ahamiyati	7
<b>Bekmurodova F.N.</b> Translation issues of linguacultural concepts in novels	11
<b>Haydarov A.A., Mansurova D.</b> So'zlashuv va badiiy nutqda intonatsiyaning roli	14
<b>Haydarov A.A., Mo'minova R.</b> Antroponimlarni tahliliy o'rganish	17
<b>Haydarov A.A., Ro'ziyeva N.</b> Konnotativ ma'noning nutq birliklarida ifodalanishi	19
<b>Haydarov A.A., Sattorova Sh.</b> Modallikning ifoda vositalari	22
<b>Husaynova M.M.</b> O'zbek milliy latifalari matnining leksik-stilistik xususiyatlari	24
<b>Ishqobilova H.</b> The concept of value in linguistic culture and its brief analysis within the concepts of "hospitality and solidarity"	26
<b>Ismoilova O.I.</b> HNP <sub>2</sub> komponenti o'rnida kelgan ikki valentli elementlar ifodalagan sintaksemlar	29
<b>Jurayeva N.G.</b> Mumtoz she'riyatning nazm tuzilishiga bir nazar	33
<b>Khakimova M.F.</b> The literary translation of the passage from A. Mukhtar's novel "Platan"	37
<b>Kutlimuratova G.K.</b> Konsepsiya maydon qurilishi haqida	40
<b>Makhammadov B.</b> Ingliz tilidagi AOTMI terminlarining genetik xususiyatlari	42
<b>Mahmudjonova M.X.</b> Sintaktik sathda valentlik nazariyasi haqida ayrim mulohazalar	47
<b>Mavlonova M.M.</b> Pedagogical strategies of improving english in andragogy education	50
<b>Minniqulov I.U.</b> Tilshunoslikda aksiologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari	53
<b>Mirzazoda D.M.</b> O'zbek tilida suyish funksional-semantik ma'nosining gender xususiyatlari	56
<b>Nurjanov O.</b> O'zbek tili etnografik leksikasining dialektal xususiyatlarini o'rganish muammosi	60
<b>Qodirova M., Soqiyeva Sh.</b> Pronominal murojaat shakllarida implikaturaning roli	62
<b>Qulniyozova Sh.N., Uralova O.P.</b> O'zbek va ingliz tillarida kosmonimlar hosil bo'lishining linguokulturologik xususiyatlari	65
<b>Sabirova N.E.</b> Xorazm dostonchiligi rivojida Ustoz-shogirdlik an'analari	67
<b>Saparova Q.O., Irgasheva U.A.</b> Xitoy tiliga oid til materiallarini baholash xususiyatlari haqida	71
<b>Sapayeva F.N.</b> Xorijiy tillarni (ingliz tili) o'zlashtirishda o'yinlar orqali og'zaki nutqni rivojlantirish	74
<b>Sharipova M.B.</b> Fozil Yo'ldosh "Alpomish" variantida nikoh marosimi badiiy talqini	81
<b>Shokarimova K.A.</b> Poetik matnlarda vizualizatsiya darajalari	81
<b>Sobirov M.M.</b> About learner's dictionaries of uzbek language	83
<b>Turdimurodov S.</b> Evfemik graduonimiyada aynanlik va farqlilik tamoyili	86
<b>Ubaydullayeva Z.H.</b> Hissiyot tushunchasi va hissiyotlar lingvistikasi	89
<b>Xusainova Sh.E.</b> Tibbiyot sohasi misolida termin va tushuncha munosabati	93
<b>Абдувалиев М.А.</b> Ўзбек тилида тўсиқсизлик концептини воқелантирувчи лексик бирликлар	95
<b>Азимов У.С.</b> Оддий фольклоризм: таржима ва аслият	98
<b>Бегимов О.Т.</b> Сарик сўзининг апеллятив ва ономастик сатҳда қўлланиш хусусиятлари	101
<b>Вахабова М.Т.</b> Становление лингвокультурологии как самостоятельной научной дисциплины	104
<b>Есемуратова У.Х.</b> «Давлетярбек» достони ва дostonдаги образлар	107
<b>Казакow И.Р.</b> Қорақалпоқ тилшунослигида лингвокультурологик талқинлар	110
<b>Мадалов Н.Э.</b> Инглиз ва ўзбек тилларидаги табиат ҳодисаси билан боғлиқ мақолларда синоним ва антоним муносабатларини ифодаланиши	114
<b>Мамурова М.М.</b> "Ғазнавийлар" романида халқ оғзаки ижоди намуналарининг ўрни ва туш мотиви	118
<b>Мақсетова З.Ш., Джолдасова Г.Б.</b> Инсон интеллектуал қобилятин ифодаловчи фразеологик бирликлар таҳлили	121
<b>Минаварова Г.М.</b> Заимствование – как процесс развития языка	124

2. Джусупов Н. Проблема концепта в современной лингвистике. //Преподавание языка и литературы, Т., 2004, № 4. - с. 12-18.
3. Biboletova, MZ Concept of the subject "Foreign language" / MZ Biboletova, NN Trubaneva, AV Schepilova // Foreign languages at school. - 2013. - № 10.
4. Sapaeva F., Khujaniyazova G., Khajieva I., Abdullaeva Sh., Matyazova N. Learning different contexts in teaching second language. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 3, 2020 (P. 266-267)
5. Khujaniyazova G., Sapaeva F. Specific formation of foreign language professional and communicative competence in a technical university (Muallim, №SI-1 (2022) DOI [http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2022-SI-1\(91-96\)](http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2022-SI-1(91-96))) 7

## UO'K 81-13

## FOZIL YO'LDOSH "ALPOMISH" VARIANTIDA NIKOH MAROSIMI BADIY TALQINI

*M.B.Sharipova, o'qituvchi, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Maqolada xalq ma'naviy xazinasidan o'rin olgan marosim bilan bog'liq tasavvur-tushunchalarning izlari saqlanib qolganligi yoki muayyan bir marosimning o'tkazilishi badiiy tasvirlab berilganligi kuzatiladi. Bu esa doston (epos) va marosim munosabatini, ularning bog'liq jihatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** epos, doston, baxshi, Alpomish, marosim, marosim folklori, syujet, poetik struktura, ertak morfologiyasi, an'ana.

**Аннотация.** Отмечается, что в статье сохраняются следы идей, связанных с церемонией, которые являются частью духовной сокровищницы народа, или же художественно изображено проведение той или иной церемонии. Имеется в виду отношения между эпосом (эпосом) и церемонией, связанные с ними аспекты.

**Ключевые слова:** эпос, бахши, алпомш, обряд, обрядовый фольклор, сюжет, поэтическая структура, морфология сказки, традиция.

**Abstract.** It is noted that the article retains traces of ideas related to the ceremony, which are part of the spiritual treasury of the people, or artistically depicts the conduct of a particular ceremony. This refers to the relationship between the epic (epic) and the ceremony, related aspects.

**Key words:** epos, bakhshi, alpomish, rite, ritual folklore, plot, poetic structure, morphology of a fairy tale, tradition.

“Alpomish” dostonida eng ko'p badiiy aks ettirilgan marosimlardan biri bu nikoh to'yi marosimi va unga xos urf-odatlardir. Chunki nikoh to'yi to'ylarning eng kattasi va eng ma'suliyatlisi sanaladi. U orqali oilaviy hayotning tamal toshi qo'yiladi. Sir emaski, oila boshidan qancha mustahkam bo'lsa, keyinchalik uning mustahkamligi, tinchligi, baxtiyorligi shuncha kafolatlanadi. Oila mustahkam bo'lsa, elu yurt ham mustahkam va tinch bo'ladi. Nikoh to'yi uzoq tarixga ega bo'lib, turli davrlarda turli ko'rinishlarda o'tkazilib kelinmoqda. Jamiyat taraqqiyoti hamda insonlar turmush tarzining o'zgarishi bilan nikoh to'yi va u bilan bog'liq urf-odat, rasm-rusum va an'analar, marosimlar ham o'zgarib, mazmunan yangilanib, zamona talablariga moslashib borgan kuzatiladi. Bu holatni aniqroq tasavvur etish uchun “Alpomish” dostonida tasvirlangan qadimiy nikoh to'yi an'analari bilan hozirgi nikoh to'yi an'analarini o'zaro qiyoslash kifoya. O'zbek nikoh to'ylari uch bosqichda o'tkaziladi. Bular: 1) nikoh to'yigacha bo'ladigan urf-odatlar; 2) nikoh to'yi vaqtida o'tkaziladigan marosimlar; 3) nikoh to'yidan keyin o'tkaziladigan marosimlar.

O'zbek nikoh to'yining birinchi bosqichida “qiz tanlash” yoki “qiz ko'rish” va “sovchilik” udumlari muhim o'rin tutadi. “Qiz tanlash”da, odatda, ayollar faollik ko'rsatishgan. Sovchilikda esa erkaklar qatnashgan. An'anaga ko'ra, tanlangan qiz xonadoniga ayollar borib “og'iz islash” qilishgan. Xalq orasida bunday sovchilik “makiyon sovchi” nomi bilan yuritilgan.

“Og'iz islash” jarayonida qizning “boshi bo'shmi” yoki “boshi bog'liqmi” ekanligi surishtirilgan. Shundan so'ng rasmiy holda sovchi bo'lib kelishgan. “Og'iz islash” nomi bilan yuritiluvchi sovchilikning dastlabki bosqichi “Alpomish” dostonida ham tasvirlangan. Unda yetti qalmoq bahodirlarning onasi Surxayil Qorajon uchun Barchin yashaydigan xonadonga “og'iz islash” maqsadida tashrif buyuradi. Bu jarayon dostonida Surxayil tilidan keltirilgan quyidagi she'riy parchada o'z ifodasini topgan:

O'zbaklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,  
 Atashtirib ro'mol berib kelaman.  
 O'zbaklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,  
**Boshi bo'shmi deyin, avval so'rayin.**  
 Yaxshi qizlar agar boshi bo'sh bo'lsa,  
 Kelin qilib, biror ro'mol o'rayin.  
 Uylantirsam, senga xabar berayin,  
 Borishli, kelishli bo'lib yurayin. [1]

Etnograf K.Shoniyozov qorluqlarning nikoh to'yi marosimi udumlari haqida to'xtalar ekan, quyidagilarni ma'lum qiladi: “Kelin bo'ladigan qiz tanlangandan keyin yigit tomonidan ikki ayol – kuyov bo'lgichning ammasi, xolasi yoki turmushga chiqqan opasi sovchilikka borishadi”. Agar shu ma'lumotlar asosida “Alpomish” dostonidagi Surxayilning Barchinga sovchilikka borish epizodi o'rganilsa, Surxayil tomonidan shu udumning noto'g'ri ado etilgani, buzilgani kuzatiladi. Chunki udumlarimizda yigitning onasi emas, unga boshqa yaqin qarindosh ayol sovchilikka borishi lozim bo'lgan. Bu bilan Surxayilning manman, nopisand, befarosat ayol ekanligiga ishora qilinmoqda.

Sovchilar kelgan xonadonda qizning onasi ularni “Xush kelibsizlar!” deya ochiq chehra bilan kutib olishi, kelganlar oldiga dasturxon yoyishi, choy va eguliklar hozirlashi odat tusini olgan. Shunda gap orasida sovchilardan biri maqsadini ayon qilgan. Bu odat talqini “Alpomish” dostonida Barchinoylar xonadoniga Surxayil boshliq ayollar tashrif buyurgan epizodda quyidagicha aks ettirilgan: “Mehmonlar ko'rishib o'tirdi. Boybicha mehmonlarga osh taraddud qildi, ziyofatga palov pishirib damlab: «Endi mehmonlar bilan gaplashib o'tirayin», – deb boybicha ham kelib o'tirdi. U yoqdan, bu yoqdan gap tashlashib, besh-to'rt og'iz gap boshlashib, shunda kampir boybichaga qarab, shu qizingning boshi bo'shmi, –deb so'rab turgan eri:

Qozonda qaynagan shirboz go'shmidi?  
 Shul qizingning agar boshi bo'shmidi?  
 Boshi bo'shmi deyin, sendan so'rayin,  
 Kelin qilib biror ro'mol o'rayin,  
 Qorajonga atashtirib borayin... [2]

Sovchilik bilan bog'liq “ro'mol bog'lash” udumi qizning boshini “band qilish”, ya'ni fотиha qilish rasmini ramziy ifoda etadi. “Ro'mol o'rash” marosimidan so'ng bu qizga boshqa xonadondan sovchi kelmaydi. Shu qizning endi atalgani bor hisoblanadi.

Demak, yuqorida misol keltirilgan she'riy parchadagi “boshi bo'sh”, “ro'mol o'rash”, “atashtirish” singari tushunchalar xalqimizning turmush tarzi bilan bog'liq etnografizmlar sifatida e'tiborni tortadi.

Sovchilikda ko'pincha yigit va qizni bir-biriga teng ko'rish, atashtirish uchun ularning mos keladigan belgi-xususiyatlariga ahamiyat qaratilgan. Ikkala yoshning “yulduzi yulduziga teng kelishi”, munosibligi ta'rif-tavsif qilingan. Shundan kelib chiqib, “Alpomish” dostonida ham sovchi Surxayil tilidan Qorajon va Barchinni tenglashtirishga qaratilgan shunday so'zlar aytiladi:

Kelin qilib ketay sening qizingdi,  
 Sening qizing Qorajonga lozimdi(r).  
*Qizingning boshida taralgan chochi,*  
*Qorajon ham yigitlarning me'roji...*  
 Qorajon ham yomon emas, bekbachcha,  
 Ikkovi xam o'ynab yursin dar kecha...  
 Necha qizlar Qorajon deb intizor,  
 O'ziga teng ko'rmas bolam zo'rabor,  
 Kelin qilib borsam ko'ngli topilar,  
 Necha mahram Qorajonga xizmatkor,  
 Shul qizingni sening bermog'ing darkor. [3]

Sovchilar o'z niyatlarini qiz tomonga bildirganlaridan keyin qiz tomon ham o'z fikrini aytgan. “Alpomish” dostonida Barchinning onasi tomonidan Surxayil boshliq sovchilarga berilgan javob shunday keltirilgan: “Kampirdan bu so'zni eshitib, boybicha ham bir so'z deb turgan ekan:

Qozonda qaynagan shirboz go'sh emas,  
 To'rda o'tirgan qizning boshi bo'sh emas.  
 Qizim domot bobosining uliga,  
 Mol bergani Boysin-Qo'ng'iro't elida.  
 Asli o'zi Qo'ng'iro't elning be'kzodi,  
 Shul qizimning bul atashgan domoti,  
 Erisin tog'larning qori erisin,  
 Er ostida dushman tani chirisin,  
 Iloyim Qorajon o'g'ling qurisin,  
 Sen eshitgin mening aytgan so'zimni. [4]

Bir osh pishgunga qadar qiz va yigit tomon shu tarzda “og'iz is'kash” savol-javobini qilib olishgan. Bunda javobning ijobiy yoki salbiy bo'lishidan qat'iy nazar tashrif buyurgan mehmonlar quruq jo'natilmagan. Shu ma'noda garchi Barchinning onasi Qorajon tomonidan kelgan sovchilarga norozilik bildirgan, qizining boshi bog'liqligini aytgan esa-da, ularni quruq qaytarmaydi. Osh suzib, mehmon qiladi. “Alpomish” dostonida buning tasviri shunday keltirilgan: “Mehmonlarni o'tqizib, qo'lini yuvdirib, uch tovoqqa oshni suzib, olib kelib mehmonlarning oldiga qo'ydi: bir tovoq to'rtovara bo'lib qoldi. Boya Qorajonning enasi zehni koyigan, ikki guruch olib og'ziga soldi. Buyoqdagi kampirlar agar uch guruch olib og'ziga solsa, haddi yo'q, boshini kesadi. Qorajonning enasidan qo'rqqanidan bular ham ikki guruchdan olib og'ziga soldi. Uch tovoq oshdan yigirma guruch kamib qoldi. Bo'ldik, – deb uzata berdi. Tovoqni berib, fotihani yuziga tortdi, mehmonlarni jo'natdi” [5].

Bu tasvir shuni anglatadiki, sovchilikka har kimni ham uzatib bo'lmaydi. Bunday ishga, asosan, ko'pni ko'rgan, odob-axloqli, nafsini tiya oladigan, ko'rimli, farosatli, o'y-fikrli, so'zga chechan kishilar jalb qilingan. Aks holda, dostonida tasvirlanganidek, xunuk holat yuz berishi mumkin. Sovchilar ham aslida mehmonning bir turidir. Xalqimiz orasida “Mehmon otangday ulug'” degan hikmat yuradi. Shuning uchun har tomonlama andishali, ko'zi to'q bo'lgan Boysari xonadoni vakillari sovchi-mehmonlarni iliq kutib olib, ularning olqishiga erishadi. Ular Boysari xonadonini “Xo'p ko'rganli boylar ekan” deya maqtab ketishadi.

Kuyov tomon, odatda, sovchilikdan qaytganlarni “Bo'rimi, tulki?” deya kutib olishi an'anaga aylangan. Agar sovchilarning ishi bitgan bo'lsa “bo'ri” deb, qiz tomon rozi bo'lmagan taqdirda “tulki” deb javob berishadi. Ana shu azaliy odat ham “Alpomish” dostonida o'z talqinini topgan. Jumladan, sovchilikka ketgan onasini Murodtepada kutib turgan Qorajonning ruhiy kechinmalari bu jihatdan shunday ifoda etilgan: “Qorajon yo'lga qarab yotibdi. Qarasa, enasi kelayapti, enasini ko'rib Qorajon: – Qalay, qalay, ena? Bo'ri bo'lib kelayapsanmi, tulki bo'lib kelayapsanmi? – dedi. Enasi aytdi: – Bolam, men borgan erda ham tulki bo'lamanmi, bo'ri bo'lib kelayotibman, seni uylantirib, bu ko'ylaklarni quda-andalikka kiyib kelayotibman” [6]. Sovchilik udumlarimiz bo'yicha agar qiz tomon qudalashishga rozi bo'lsa, kelgan sovchilarga zo'r ziyofat berish barobarida qimmatbaho sarpolar ham kiydirib jo'natadi. Ma'lumki, Surxayil kampirni it talab, egnidagi kiyimlarini yirtadi. Uning yalang'och bo'lib qolganini ko'rib, boybicha uyiga borib, yangi kiyimlar olib kelib, kampirning ustidagi kuchuk yirtgan kiyimlarini chechib olib, yangi kiyim kiydirib, kuchuklarini urib, kampirning dimog'ini chog' qilib, uyiga ergashtirib boradi. Yolg'onchi kampir esa shu holatni yashirib, Qorajonni aldaydi. Bu o'rinda Surxayil kampirning yana bir salbiy xususiyati namoyon bo'ladi. Onasiga ishongan Qorajonning esa soddadilligi, ishonuvchanligi, ko'ngli to'g'riligi anglashiladi. Shuning uchun Qorajon aytdi: «Enam bizni ko'rganli erdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarposini qilib yuboribdi». – Endi bo'ri bo'lganingdan gapir, – deb turibdi [1]. Odatda, sovchilar sovchilik jarayonini oqizmay-tomizmay gapirib berishadi. Shu hayotiy voqelik ham “Alpomish” dostoni syujetidan o'rin olgan: “Qilgan ishidan bildirib, kampir Qorajonga qarab, bir so'z deyapti:

Kelin qilayin deb avval so'radim.  
 Boysarining yaxshi qizi bor ekan,  
 Oti Barchin, o'zi zulfaktor ekan, [1]

– deya sovchi ona qizning ta'rifini keltiradi.

Qirqin qizlar unga xizmatkor ekan.  
 O'n to'rt yashar ekan, ayni kamoli,  
 Boshida pirpirar lovdon ro'moli.  
 Boybichani ko'p ag'darib so'radim,  
 Boshi bo'sh ekanin toza sinadim,  
 Senga atashtirib ro'mol o'radim,  
 Shu bugun qalliqqa borgin, Qorajon,  
 O'zbeklarning rasimi shunday bo'ladi,  
 Atashtirgan kuni kuyov boradi. [1]

Odatda, sovchilarga rozilik bildirilgandan so'ng rasm-odat bo'yicha qanday udumlar amalga oshirilishi, qiz mahri uchun nimalar berilishi lozimligi, "qiz qalini" kabilar kelishib olingan. Shuning uchun sovchi bo'lib kelgan Surxayil qiz tomonga qarata:

Rasmi qa'dang menga ma'lum qilsang-chi,  
 Nima deb amr etsang ani berayin,  
 O'zbek boylar, rasimingni so'rayin, [1]

– deya murojaat etadi.

O'tmishda ko'proq yaqin qarindoshlar, bir-biri bilan sinashta odamlar o'zaro quda bo'lishni rejalashtirgan. Buning natijasida hatto chaqaloqlarni yoshligidan bir-biriga "atashtirib qo'yish", "qulog'ini tishlatish", "beshik kerti qilish", "etak yirtar qilish" singari odatlar amalga oshirilgan. E'tiborli jihati shundaki, bunday qadimiy odatlarimiz hozir deyarli bajarilmasa-da, ular haqidagi ma'lumotlar xalq dostonlarida badiiy motiv ko'rinishida saqlanib qolgani kuzatiladi. Jumladan, "Alpomish" dostonining Qora baxshi Umirovdan yozib olingan variantida Hakimbek bilan Barchinoyini "etak yirtish" qilib, unashtirib qo'yilgani tasvirlanadi: "Hakimbek bilan Barchinoyning orqa etagini birga ushlab yirtirdi, ikkovini "etak yirtish" qilib unashtirib qo'ydi" [8].

Tadqiqotchi Latifa Xudoyqulova surxon vohasi sovchilik qo'shiqlari va aytimlariga nazar qaratar ekan, hududdagi sovchilik ko'rinishlarini ham aytib o'tadi. U "etak yirtar" shunday odatlardan biri ekanligini ta'kidlab, bu odatga ko'ra Surxon vohasining Denov tumanida qiz bola tug'ilganida kelin qilishni niyat qilgan oila mazkur xonadonga tashrif buyurib, chaqaloqqa kiygizilgan ko'ylakning etagini irim qilib yirtib qo'ygan.

"Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantida "Shohimardon Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshkerti qilib: «Bu ikkovi eru xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin ollohu akbar» deb fотиha o'qigani tasviri beriladi. Bolalarni yoshligidan, ya'ni beshik davridan er-xotinlikka atash "beshik kerti" udumi nomi bilan yuritiladi. Bu udum respublikamizning deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan.

"Etak yirtar", "beshik kerti" qilingan qiz bola voyaga etganida uning etagini yirtgan yoki beshigini kertgan oila tomonidan "el belgisi" deb nomlangan marosim o'tkazilgan. Buning uchun oilaning yaqin qarindosh-urug'lari va mahalla oqsoqollari ishtirokida qizning uyiga biror jonliq, ko'pincha qo'chqor olib kelib so'rganlar va fотиha o'qiganlar shundan so'ng bu qiz "belgili" hisoblangan va uning uyiga boshqa xonadondan sovchi qo'yilmagan.

Umuman aytganda, o'zbek xonadonlarida farzandning kelajagi uchun uning yoshligidan boshlab qayg'ura boshlaydilar. Ayniqsa, o'g'li borlar yaxshi kelin olishni, qizi borlar esa uni yaxshi joyga uzatishni orzu qiladi. Shuning uchun "qiz tanlash" bosqichi juda muhim va nozik sanaladi.

Xullas, "Alpomish" dostoni nikoh to'yi jarayoni bilan bog'liq bunday maishiy hayot detallariga juda boy. Ularni keng qamrab olganligi jihatidan doston o'ziga xos qomusiy ahamiyat kasb etadi. Doston maishiy hayot detallariga juda boy. U real hayot epizodlarini keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Unda xalqimizning maishiy hayotida muhim o'rin egallagan oilaviy-maishiy marosimlar badiiy ifoda etilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.
  2. Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1974. – С.76.
  3. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011. – Б.93-94
- Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. – Б.5.



Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.

6. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

7. Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). The expression of the national traditions and beliefs in uzbek phraseological units. *Theoretical & Applied Science*, (6), 469-472.

8. Муродов М., Нахимов Н., Эргашев А. Қадриятнома. 1-китоб. – Т.: Меҳнат, 2001. – Б.35-36.

UO'T 81.42

## POETIK MATNLARDA VIZUALIZATSIYA DARAJALARI

*K.A.Shokarimova, katta o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada poetik matnlarning vizualizatsiya darajalari o'zbek she'riyati namunalari misolida ko'rib chiqiladi. Poetik matnlar nafaqat ma'lum bir tasvir xosil qilish orqali, balki ularda tinish belgilari va shriftni noan'anaviy tarzda qo'llash, bo'shliqlar qoldirish, matn qismlarining sahifada o'zgacha joylashuvi orqali ham vizuallashtirish mumkinligi muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *vizual poetik matnlar, vizualizatsiya darajasi, poetik grafika, punktuatsiya, shrift, bo'shliqlar, fragmentatsiya.*

**Аннотация.** *В статье рассмотрены уровни визуализации поэтических текстов на примере узбекской поэзии. Обсуждается, что визуальные поэтические тексты это не только тексты, которые образуют определенное изображение или фигуру, но и те, в которых нетрадиционно используются знаки препинания и шрифт, применяются пустоты и необычное размещение частей текста на странице.*

**Ключевые слова:** *визуальные поэтические тексты, уровень визуализации, поэтическая графика, пунктуация, шрифт, пустоты, фрагментация.*

**Abstract.** *The article discusses the levels of visualization of poetic texts on the example of Uzbek poetry. It is discussed that visual poetic texts are not only the texts that form a certain image or figure, but also those in which punctuation marks and font are used unconventionally; voids and unusual placement of text parts are applied*

**Key words:** *visual poetic texts, level of visualization, poetic graphics, punctuation, font, voids, fragmentation.*

Vizual poetik matnlar tarkibidagi vizual unsurlar ko'zga ko'rinmas bo'shliqdan tortib, dabdabali tasvir yoki naqshgacha bo'lgan ko'rinishda bo'lishi mumkin. Isroillik tilshunos R. Baransi arab vizual poetik matnlarini tadqiq qilar ekan, ularning har birida vizuallik darajasi turlicha namoyon bo'lishini ta'kidlab, uchta darajani belgilab beradi[2]. Shunga o'xshash klassifikatsiyani rus tilshunosi Yu. Kazarinning tadqiqot ishlarida ham ko'rish mumkin [2]. Biroq olim tasnifga poetik matnlardagi vizualizatsiya darajasi sifatida qaramaydi, balki ularga poetik grafikaning funksional turlari sifatida yondashadi.

Biz R. Baransining tasnifini Yu. Kazarinning tasnifiga nisbatan ancha izchil deb topib, o'zbek vizual poeziyasi namunalariidagi vizuallik darajasini aniqlash uchun foydalandik. Biroq R. Baransi maqolasidagi tasnif biz taklif qilayotgan usuldagidek sistemalashtirilmagan bo'lib, shunchaki bayon qilinib ketilgan. Bundan tashqari, poetik matnlardagi vizuallashtirishning ayrim turlari olim tomonidan keltirib o'tilmagan bo'lib, ular bizning kuzatishlarimiz natijasi hisoblanadi. Biz ularni asterisk (\*) belgisini qo'yish orqali ajratib qo'ydik. Quyida o'zbek vizual poetik matnlarida vizualizatsiya darajalari va ularning qay tariqa namoyon bo'lishi keltirilib o'tiladi:

I. Birinchi daraja. Ushbu vizualizatsiya darajasi eng oddiy hisoblanib, ba'zan e'tiborsiz kitobxonlar bunday vizual poetik matnlarni an'anaviy poetik matnlardan ajrata olmasligi ham mumkin.

1. Tinish belgilar yordamida manipulyatsiya qilish.

a) tinish belgilarini ortiqcha ishlatish, ularning an'anaviy funksiyasidan chekinish. L. Budnichenko maqolasida "Futuristlar, ayniqsa, "to'mtoq nuqta va vergullar"ni qo'llashga qarshilik bildirib, ekspressiv tire, so'roq va undov belgilarni afzal ko'rardilar", deb yozadi[3, 184]. Tinish belgilarini suiste'mol qilish matnda anglashilayotgan mazmunning ekspressivlik darajasini